

## QASHQADARYO VILOYAT SUDI JINOYAT ISHLARI BO'YICHA SUDLOV HAY'ATI APELLATSIYA INSTANSIYASINING A J R I M I

2022 yil yanvar oyining 28 kuni, Qashqadaryo viloyat sudi jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati o'z binosida, ochiq sud majlisida;

viloyat sudi raisining o'rinbosari O'.Mamadaliyevning raisligida, hay'at sudyalari: B.Turdiyev va X.Boboqulovlardan iborat tarkibda, sudya katta yordamchisi S.Yodgorovning kotibligida, taraflardan: Qashqadaryo viloyat prokuraturasining bo'lim prokurori H.Bobomurodov, sudlanuvchi L.Hafizov va B.Hafizov hamda ularning himoyachisi - advokat S.Xushev, jabrlanuvchi M.Muhitdinovning ishtirokida, advokat S.Xushevning sudlanuvchi L.Hafizov va B.Hafizovga oid sud hukmi ustidan bergan apellatsiya shikoyatini 1-1804-2101/94-sonli jinoyat ishi hujjatlari bilan birga ko'rib chiqib, quyidagilarni

### a n i q l a d i:

Jinoyat ishlari bo'yicha Yakkabog' tuman sudining 2021 yil 12 noyabrdagi hukmiga asosan:

**HAFIZOV LAZIZ HOMID O'G'LI**, 1987 yil 28 avgust kuni Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanida tug'ilgan, millati o'zbek, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, ma'lumoti o'rta, oilali, 3 nafar farzandi bor, Kitob tumanidagi "Xondamirxon-Temurxon" xususiy korxonasida ishchi bo'lib ishlaydi, muqaddam sudlanmagan, Kitob tumani, "Bog'bon" mahalla fuqarolar yig'ini, Yangiqishloq qishlog'ida yashagan, 2021 yil 7 iyulda "qamoqqa olish" tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanilgan;

O'zbekiston Respublikasi JKning 168-moddasi 4-qismi "a" bandi bilan 8 yil ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan.

**HAFIZOV BOBOXON HOMID O'G'LI**, 1985 yil 3 avgust kuni Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanida tug'ilgan, millati o'zbek, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, ma'lumoti o'rta, oilali, 4 nafar farzandi bor, Kitob tumanidagi "Xondamirxon-Temurxon" xususiy korxonasi rahbari bo'lib ishlaydi, muqaddam sudlanmagan, Kitob tumani, "Bog'bon" mahalla fuqarolar yig'ini, Yangiqishloq qishlog'ida yashagan, "garov" ehtiyot chorasi qo'llanilgan;

O'zbekiston Respublikasi JKning 168-moddasi 4-qismi "a" bandi bilan JKning 57-moddasi qo'llanib, 4 yil 6 oy ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan.

Sudlanuvchi L.Hafizov va B.Hafizovlardan solidar tartibda jabrlanuvchi M.Muhitdinovning foydasiga 357.000.000 so'm undirish belgilangan.

Sudning hukmiga asosan, L.Hafizov Kitob tumanida faoliyat ko'rsatib kelayotgan "Xondamirxon Temurxon" xususiy korxonasi rahbari vazifasida ishlab kelayotgan akasi B.Hafizov bilan oldindan til biriktirib, g'araz va boshqa



past niyatlarda o'zganing juda ko'p miqdordagi mol-mulkini aldash va ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan qo'lga kiritish maqsadida bir guruhga birlashib, Kitob tumani, "Mustaqillik" MFY, Gulzor ko'chasi, 31-uyda yashovchi fuqaro Muhitdinov Murodullo Jumayevichga "Kitob tumanida yashovchi fuqarolarga banklar tomonidan ajratiladigan imtiyozli kredit mablag'lari evaziga issiqxona qurib beryapmiz, issiqxona uchun ishlatiladigan metall mahsulotlarini yetkazib berib tursangiz banklar tomonidan fuqarolarga ajratilgan kredit mablag'larini olganimizdan so'ng uzog'i bilan 5 oyda berib turgan metallaringizni pulini beraman, foydani teng ikkiga bo'lamiz"- deb aldab, ishonchiga kirib, 2018 yil noyabr oyi boshlarida 78.000.000 so'mlik turli qalinlikdagi 0.80x2 o'lchamli metall listlarni qo'lga kiritib, shundan so'ng davomli tarzda, 2018 yil 21 noyabr kuni 148.498.888 so'm qiymatga teng bo'lgan 17.940 AQSh dollarlik metall profillarni, 2019 yil yanvar oyida 167.162.164 so'm qiymatga teng bo'lgan 19.936 AQSh dollarlik metall profil va trubalar, 2019 yil yanvar oyi oxirlarida 20.000.000 so'mlik metall profil va trubalar, 2019 yil 1 fevral kuni 104.811.750 so'm qiymatga teng bo'lgan 12.500 AQSh dollarlik metall listlar, 12.000.000 so'mlik profil tyaga va 258.000.000 so'mlik truba va metall profillarni, 2019 yil 20 fevral kuni 77.711.772 so'm qiymatga teng bo'lgan 9.260 AQSh dollarlik va 82.000.000 so'mlik profillarni, 2019 yil 17 may kuni 106.775.812 so'm qiymatga teng bo'lgan 12.624 AQSh dollarlik profil va 42.140.000 so'mlik armaturalarni qabul qilib olib, olingan metall mahsulotlaridan turli maqsadlarda foydalanib, M.Muhitdinovdan 2019 yil 5 iyun kuni yana 288.856.917 so'm qiymatga teng bo'lgan 33.929 AQSh dollarlik metall profillar qabul qilib olishgandan so'ng L.Hafizov va B.Hafizovlar 54.282.522.3 so'm qiymatga teng bo'lgan 6.376 AQSh dollarlik metall profillarni sotgan bo'lsa-da, muqaddam yetkazib berilgan metall mahsulotlarini pulini va oxirgi marotaba yetkazib berilgan metall mahsulotlaridan sotilgan 54.282.522.3 so'm qiymatga teng bo'lgan 6.376 AQSh dollari pullarini bermaganligi sababli M.Muhitdinov, L.Hafizov va B.Hafizovlar uni aldab, yetkazib bergan metall mahsulotlarini sotib pullarini o'zlashtirish niyatida ekanliklarini bilib, sotilmasdan qolgan 234.574.394 so'm qiymatga teng bo'lgan 27.553 AQSh dollarlik metall profillarni qaytarib olib ketganidan so'ng, M.Muhitdinov tomonidan yetkazib berilgan barcha metall mahsulotlarini o'zaro hisob-kitob qilishib, M.Muhitdinov tomonidan yetkazib berilgan metall mahsulotlari uchun tuzilgan shartnomalar bo'yicha Andijon viloyatidagi "Everest Metall Favorite" MChJga 247.900.000 so'm, Toshkent shahridagi "Trubokomplekt" MChJga 150.000.000 so'm va Samarqand shahridagi "Azia Metall Prof" MChJga 52.000.000 so'm pul mablag'larini "Xondamirxon-Temurxon" xususiy korxonasining bankdagi hisob-raqamidan pul ko'chirish yo'li bilan to'lab berilganligini va darvozachi ustalarga berilgan metall mahsulotlarini o'zaro qayd etishganidan so'ng B.Hafizov va L.Hafizovlar M.Muhitdinovga 357.000.000 so'm to'lab berishlari lozimligini aniqlashib, aslida fuqarolarga issiqxona qurish uchun ajratilgan kredit mablag'lari "Xondamirxon-Temurxon" xususiy korxonasi hisob raqamiga to'liq o'tkazib berilib, ushbu to'lab berilgan pul mablag'larini korporativ plastik kartasiga o'tkazib, foydalanishgan bo'lsalar-



da, M.Muhitdinovga “Bank tomonidan to‘lab berilishi lozim bo‘lgan pul mablag‘lari to‘lab berilmayapti” – deb aldab, ishonchiga kirish maqsadida 2020 yil 28 fevralda L.Hafizov akasi B.Hafizov bilan kelishgan holda bank tomonidan pul mablag‘lari to‘lab berilganidan so‘ng L.Hafizov M.Muhitdinovga “Men Hafizov Laziz Muhitdinov Muradullodan 357.000.000 so‘m qarizman, oldi-berdimiz qolgan, bank pulni tushirmay turibdi” – deb, tilxat yozib berib, o‘zganing 357.000.000 so‘m juda ko‘p miqdordagi pullarini firibgarlik yo‘li bilan qo‘lga kiritib, o‘z manfaatlari uchun ishlatib yuborishgan.

Himoyachi S.Xushev shikoyatida, ish holatlari to‘liq o‘rganilmaganligi, L.Hafizov va B.Hafizovni ayblash uchun yetarli dalillar yo‘qligi sababli hukmni ularga oid qismini bekor qilib, oqlov hukmi chiqarishni so‘ragan.

Sudlanuvchi L.Hafizov apellatsiya instansiyasi sudida, Kitob tumanidagi “Xondamirxon Temurxon” korxonasi sotuvchi bo‘lib ishlaganligini, metall mahsulotlarni naqd yoki naqdsiz sotib, pulini akasi B.Hafizovga berganligini, M.Muhitdinov akasi B.Hafizovga 78.000.000 so‘mlik list metallarni olib kelib, sotib berishini iltimos qilganligini, korxonada 10 xildan ziyodroq metall mahsulotlari borligini, list metall mahsulotlariga talab kamroqligini, M.Muhitdinov yashash uyiga kelib unga “uka og‘ir vaziyatga tushib qoldim, vodiylıklardan metall olganman qarz bo‘lib qoldim”-deb iltimos aytganida, unga yaxshilik qilish va odamgarchilik qilish maqsadida 357.000.000 so‘m pul olganligi haqidagi tilxatni yozib berganligini, yengillik berishni so‘radi.

Sudlanuvchi B.Hafizov apellatsiya instansiyasi sudida, Kitob tumanida joylashgan “Xondamirxon Temurxon” korxonasi rahbari bo‘lib ishlashligini, ukasi L.Hafizov bilan birga ishlaganliklarini, metall mahsulotlarini shartnomaga asosan olganligini, ukasi L.Hafizov sotilgan mahsulotlarni daftarga tushirib borganligini, hisob-kitob ishlariga aralashmaganligini, M.Muhitdinov ukasi L.Hafizovni aldab 357.000.000 so‘m olganligi haqidagi tilxatni yozdirib olganligini, M.Muhitdinovdan olingan mahsulotlar bo‘yicha pullar o‘z vaqtida berilib borilganligini, M.Muhitdinov 1.500.000.000 so‘mlik mahsulotlar berganligini isbotlab berolmaganligini, haqiqiy holatda hisob-kitob qilib ko‘rganida aslida M.Muhitdinov undan 140.000.000 so‘m qarzdorligini uni aldamaganligini, yengillik berishni so‘radi.

Jabrlanuvchi M.Muhitdinov apellatsiya instansiyasi sudida, sudlanuvchilar L.Hafizov va B.Hafizovlarni ilgaridan tanishligini, ular bilan sherikchilikda ish qilganligini, o‘zi doimiy ravishda metall mahsulotlari olib kelib sotganligini, metall mahsulotlarini nasiyaga olib kelinganligini, olingan metall mahsulotlarining sotganidan keyin pullarni taxlab berganligini, L.Hafizov va B.Hafizovlar sotilgan metall pullarni bankdan yechib olib, ishonchiga kirib, aldaganliklarini, sudlanuvchilar L.Hafizov va B.Hafizovga 1.500.000.000 so‘mlik metall mahsulotlari bo‘lib bo‘lib berilgan bo‘lib, shundan o‘zaro hisob-kitoblar bo‘yicha o‘rtalarida berilmagan 357.000.000 so‘m pul mablag‘lari mavjudligini, L.Hafizov va B.Hafizovlar issiqxona qurilishi uchun berilgan qurilish mahsulotlariga bankdan ajratilgan puldan berishlarini bildirishganligi sababli



nasiyaga olgan metall mahsulotlari 357.000.000 so'm pulini o'z yonidan E.Bakiyev, Bobir, Samandar va Sanjarlarga to'lab berganligini, shundan so'ng L.Hafizovni uyiga borib pulini talab qilganida, o'rtog'i B.Negmatovni yonida tilxat yozib berganligini, sudlanuvchi L.Hafizov va B.Xafizovdan 357.000.000 so'm pulni undirib berishni so'radi.

Apellatsiya instansiyasi sudi, ish bo'yicha sud'ya O'Mamadaliyevning ma'ruzasini, himoyachi S.Xushev, sudlanuvchilar L.Hafizov va B.Hafizovni shikoyatni qanoatlantirib oqlov hukmi chiqarish, prokuror H.Bobomurodov hamda jabrlanuvchi M.Muhitdinovning shikoyatni qanoatlantirishsiz, sud hukmini o'zgarishsiz qoldirish haqidagi muzokara so'zlarini tinglab, shikoyatda keltirilgan vajlarni jinoyat ishi hujjatlari asosida muhokama qilib, sudda aniqlangan holatlar bilan atroflicha muhokama qilib, quyidagi to'xtamga keldi.

Sudlanuvchi L.Hafizov va B.Hafizovning sud hukmida ko'rsatilgan jinoyatni qasddan sodir qilganlikdagi aybi, jabrlanuvchining arizasi, jabrlanuvchilar va guvohlarning dastlabki tergov va birinchi instansiya sudidagi ko'rsatuvlari, tushuntirish xatlari, L.Hafizov tomonidan yozilgan tilxat, so'roq qilish va yuzalashtirish bayonnomalari kabi ishda to'plangan ob'ektiv dalillar yig'indisi bilan to'liq o'z tasdig'ini topgan.

Birinchi bosqich sudi, sudlanuvchi L.Hafizov va B.Hafizovni ham fosh qiladigan, ham oqlaydigan barcha holatlarni O'zbekiston Respublikasi JPKning 22-moddasi tartibida aniqlab, ularni muhokama qilib, ish bo'yicha yig'ilgan har bir dalil ishga aloqadorligi, maqbulligi va ishonchliligi nuqtai nazaridan baholab, S.Davurovning aybloviga qo'yilgan jinoyatda aybdorligi haqidagi asosli xulosaga kelgan.

Himoyaning ish holatlari to'liq o'rganilmaganligi, sudlanuvchi L.Hafizov va B.Hafizovni aybsizligi haqidagi vajlari asossiz bo'lib, ular ishda yig'ilgan dalillar, shu jumladan jabrlanuvchi M.Muhitdinov hamda guvoh B.Negmatovning ishonchga sazovor ko'rsatuvlari bilan inkor qilinadi.

Shu ma'noda, birinchi instansiya sudi L.Hafizov va B.Hafizovni aybli deb topib, ularning jinoiy harakatlarini JKning 168-moddasi 4-qismi "a" bandi bilan kvalifikatsiya qilib, qonuniy va asosli to'xtamga kelgan.

Biroq, birinchi instansiya sudi sudlanuvchi L.Hafizovga ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq jazo tayinlashda, jazoni yengillashtiruvchi holatlarni hisobga olmasdan barvaqt xulosaga kelgan.

O'zbekiston Respublikasi JKning 7-moddasida, jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan u axloqan tuzalishi va yangi jinoyat sodir etishining oldini olish uchun zarur hamda yetarli bo'ladigan jazo tayinlashi yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi qo'llanilishi kerakligi;

8-moddasida, jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxsga nisbatan qo'llaniladigan jazo yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi odilona bo'lishi, ya'ni jinoyatning og'ir-yengilligiga, aybning va shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasiga muvofiq bo'lishi kerakligi;



54-moddasida, sud jazo tayinlashda sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasini, qilmishning sababini, yetkazilgan zararining xususiyati va miqdorini, aybdorning shaxsini hamda jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni hisobga olishi kerakligi ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006 yil 3 fevraldagi "Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida"gi Qarorining 1-bandida, sudlarning e'tibori jinoyat uchun jazo tayinlashda qonuniylik, insonparvarlik, odillik va javobgarlikning muqarrarligi prinsiplariga qat'iy amal qilishga qaratilishi;

37-bandida, JK 57-moddasiga muvofiq, sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi holatlar aniqlangan taqdirda, Jinoyat kodeksi Maxsus qismi moddasi sanksiyasida nazarda tutilgan eng kam jazodan ham kamroq yoki shu moddada nazarda tutilmagan boshqa yengilroq jazo tayinlanishi mumkinligi;

qonunga muvofiq sudlar, nafaqat shaxs jinoyat sodir etish vaqtida ko'zlagan motiv va maqsad, ayb shakli va darajasini, balki, aybdorning shaxsi, jinoyat ishtirokchilari orasidagi roli, jinoyat sodir etilish paytidagi yoki sodir etilganidan keyingi xulq-atvori, jinoyatni sodir etish sabablari va bunga olib kelgan shart-sharoitni ham e'tiborga olishlari lozimligi;

jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi alohida holatlar ro'yxati qonunda ko'rsatilmaganligini nazarda tutib, sud qabul qilgan qarorini hukmda asoslantirgan holda jazoni yengillashtiruvchi ayrim holatni ham, ularning majmuini ham bunday holat sifatida tan olishi mumkinligi haqida tushuntirish berilgan.

Ishdagi hujjatlarga ko'ra, sudlanuvchi L.Hafizov foydali mehnat bilan shug'ullanib kelgan, qilmishidan pushaymonda, oilada yagona boquvchi, qaramog'ida voyaga yetmagan farzandlari bor, muqaddam sudlanmagan.

Shu sababli apellatsiya instansiyasi sudi, hukmning L.Hafizovga oid qismini o'zgartirib, sudlanuvchi L.Hafizovga JKning 168-moddasi 4-qismi "a" bandi bilan tayinlangan jazoni JKning 57-moddasini qo'llab ozodlikni cheklash jazosi tayinlashni, JKning 62-moddasiga asosan dastlabki qamoqda o'tirgan kunini jazo muddatidan chegirishni, uning ehtiyot chorasini bekor qilib, darhol sud zalida qamoqdan ozod qilishni, L.Hafizovning zimmasiga 6 oy mobaynida yetkazilgan zararlarni to'liq qoplash majburiyatini yuklashni lozim topadi.

Shu bilan birga, birinchi instansiya sudi B.Hafizovga nisbatan jazo tayinlashda, barcha jazoni og'irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlarni inobatga olib, unga yetkazilgan moddiy zararni qoplash majburiyatini yuklagan holda JKning 57-moddasi tartibida ozodlikni cheklash jazosi tayinlab, qonuniy, asosli va adolatli to'xtamga kelgan.

B.Hafizovga nisbatan tayinlangan jazoni yengillashtirish uchun asoslar mavjud emas.



Shikoyatdagi vajlar sudlanuvchi B.Hafizovga nisbatan chiqarilgan sud hukmini o'zgartirish yoki bekor qilish uchun asos bo'laolmaydi.

Bayon qilingan holatlarga ko'ra, sudlov hay'ati, sud hukmining B.Hafizovga oid qismini o'zgarishsiz qoldirishni, L.Hafizovga oid qismini o'zgartirib, unga nisbatan JKning 57-moddasi tartibida qonun sanksiyasida nazarda tutilmagan ozodlikni cheklash jazosini tayinlashni va shikoyatni qisman qanoatlantirishni lozim topadi.

Yuqoridagilarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 497<sup>19</sup>, 497<sup>24</sup>, 497<sup>26</sup>, 497<sup>30</sup> va 497<sup>31</sup>-moddalariga asosan apellatsiya instansiyasi sudi;

### **ajrim qildi:**

Jinoyat ishlari bo'yicha Yakkabog' tuman sudining 2021 yil 12 noyabrdagi hukmining **HAFIZOV BOBOXOH HOMID O'G'Liga** o'ld qismi o'zgarishsiz qoldirilib, **HAFIZOV LAZIZ HOMID O'G'Liga** oid qismi o'zgartirilsin.

**HAFIZOV LAZIZ HOMID O'G'Lira** O'zbekiston Respublikasi JKning 168-moddasi 4-qismi "a" bandi bilan JKning 57-moddasi qo'llanib, sutkaning kech soat 22:00 dan ertalab soat 06:00 ga qadar Kitob tumani, "Bog'bon" mahalla fuqarolar yig'ini, "Yangiqishloq" qishlog'idagi yashash uyidan chiqishini cheklagan holda 5 yil ozodlikni cheklash jazosi tayinlansin.

O'zbekiston Respublikasi JKning 62-moddasiga asosan L.Hafizovning 2021 yil 7 iyuldan 2022 yil 28 yanvar kuniga qadar qamoqda saqlangan 6 oy 21 kuni tayinlangan jazodan chegirib, unga o'tash uchun **4 (to'rt) yil 5 (besh) oy 9 (to'qqiz) kun ozodlikni cheklash jazosi qoldirilsin.**

L.Hafizovga quyidagi qo'shimcha taqiqlar yuklansin:

- nazorat qiluvchi organning roziligisiz yashash joyini o'zgartirmaslik;
- Qashqadaryo viloyat hududidan tashqariga chiqmaslik;
- agarda yashash joyi o'zgarib qolsa, bu haqda nazorat qiluvchi organni xabardor etish.

L.Hafizovga 6 (olti) oy ichida, ya'ni 2022 yil 28 iyul kuniga qadar jabrlanuvchi M.Muhitdinovga yetkazilgan 357.000.000 so'm zararni to'liq qoplash majburiyati yuklatilsin.

Jazoni nazorat qilish Kitob tuman IIO FMB probatsiya xizmati zimmasiga yuklatilsin.

Jazo muddati hisobga qo'yilgan kundan boshlab hisoblansin.



L.Hafizovning ehtiyot chorasi bekor qilinib, darhol sud zalida qamoqdan ozod qilinsin.

Hukmning qolgan qismi o'zgarishsiz qoldirilsin.

Shikoyat qisman qanoatlantirilsin.

Sud qarorlari ustidan sudlanuvchi va uning himoyachisi, jabrlanuvchi va uning vakili O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga kassatsiya tartibida shikoyat berishi, prokuror protest bildirishi mumkin.

Raislik qiluvchi:  
Hay'at sud'yalari

(imzo)  
(imzo)  
(imzo)

O'. Mamadaliyev  
X.Boboqulov  
B.Turdiyev

*Asliga to'g'ri:*



Raislik qiluvchi:	(imzo)	O'. Mamadaliyev
Hay'at sud'yalari	(imzo)	B.Diyorov
	(imzo)	B.Turdiyev

*Asliga to'g'ri:*

